



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 5 (7)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

5

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Minojiddinov A.A. Meva-sabzavot tarmog‘i korxonalarini boshqarishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish yo‘llari	8
Mirzayev A.T., Dilnozaxon M. O‘zbekistonda turizm marketingi samaradorligini baholash va uni takomillashtirishning integratsiyalashgan mexanizmi.....	12
Shavkatov A.Sh. O‘zbekistonda kichik biznes rivojlanishining institutsional va makroiqtisodiy asoslari.....	16
Махамаджанов М.М. Инновационная трансформация банковского сектора Узбекистана: общесистемные тенденции и финансовые результаты.....	20
Sativaldiyeva G.X. IFRS 16 “Ijara” xalqaro standartiga muvofiq ijara hisobidagi o‘zgarishlar.....	24
Ismailov X.M. Aloqa korxonalari moliyaviy barqarorligini ta‘minlash metodologiyasini takomillashtirish masalalari.....	28
Yusubov I.I. Mintaqada iqtisodiyotni barqarorlashtirishda raqamli xizmatlarning rivojlanishi.....	32
Saidaxmedov N.X. Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoiyatini shakllanishi va rivojlanishining zamonaviy nazariyalari.....	35
Istamqulov D.Q., Danyarova F.B. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni takomillashtirish yo‘llari.....	40
Aipova I.I. Resurs samaradorligini baholashning nazariy usullari va ko‘rsatkichlari.....	43
Mirzaraximova A.A. Tijorat banklari tomonidan aloqa sohasini moliyalashtirish samaradorligini oshirish yo‘llari.....	49
Xalmirzaev A.A. Yer va suv resurslaridan samarali foydalanishda hududiy ixtisoslashuvning ahamiyati va iqtisodiy samaradorligi.....	53
Sidikov Z.A. Sirdaryo viloyatida sanoatlashtirish jarayonining hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta‘siri.....	59
Usmanova N.Y. Raqamli iqtisodiyotda menejment qarorlarini qabul qilishda innovatsion texnologiyalarning roli.....	63
Ergashev R.X., Rajabaliyeva I.A. Transport-logistika infratuzilmasini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish.....	67
Raximova D.S. Barqaror restoran amaliyotlari: oziq-ovqat chiqindilarini kamaytirish va qayta ishlashning innovatsion yondashuvlari.....	70
Narzullayeva X.A. Investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishning xalqaro tajribalari.....	76
Muxitdinov Sh.Z. Kichik agrobiznes subyektlarida mahsulotlar eksportini rivojlantirishga ta‘sir etuvchi omillar.....	84
No‘monov O.O‘. Agrotadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatiga ta‘sir etuvchi makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy omillarni kompleks baholash.....	88
Yeshimbetov U.X. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....	92
Raximova K.N. Tadbirkorlik sharoitida yashil biznesni tashkil etish va rivojlantirishining o‘ziga xos xususiyatlari	97
Хошимов П.З., Тўрахожайев Х.Х. Ислоний банкларнинг ишлаш тамойиллари ва ислон молия тизимининг Ўзбекистон иқтисодиётига таъбиқи.....	100
Sattarov R.A. An integrated methodological framework for evaluating and forecasting interregional economic cooperation: an input-output approach (evidence from Uzbekistan).....	107
Farmanov J.Z. Mintaqada asalarichilik ekotizimining tamoyillari va ekologik-geografik xususiyatlarini takomillashtirish	111
Qurbonov A.B. Janubiy iqtisodiy rayonda qishloq xo‘jaligi orxonlarining tarkibiy o‘zgarishi va agrar kooperatsiyani rivojlantirish yo‘nalishlari.....	114
Тоштемиров Т.Т. Ўзбекистонда кичик тадбиркорлик субъектлари фаолиятини кенгайтиришда солиқ механизмларида фойдаланиш масалалари.....	119
Arziyev M.A. O‘zbekiston iqtisodiyotini transformatsiyalash sharoitida oilaviy tadbirkorlikni rivjlantirishning ustuvor yo‘nalishlari.....	122
Maxkamova S.Sh. Ekologik innovatsiyalar orqali yerni oqilona boshqarishning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	127
Olimova N.X. Yashil moliyalashtirishning rivojlanish tendensiyalari hamda hozirgi amaliyoti: milliy kontekst	137
Zaylobitdinova H.X. Davlat oliy ta‘lim muassasalarining tijorat faoliyatini samarali boshqarish strategiyalari.....	141
Komilov A.I. Evolution of the catering industry in the context of digital technologies.....	145

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

Sotvoldiyev N.N. Mamlakatimizda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda mehnat bozoriga ta'sir etuvchi omillar.....	149
O'rinov A.A. Sanoat tarmoqlarining investitsion imkoniyatlarini barqarorlik indikatorlari asosida boshqarish mexanizmlari.....	154
Ahmadaliyeva R.A. O'zbekistonda xufyona iqtisodiyotga qarshi kurashish samaradorligi.....	158
Uzganbayeva D.T., Alimova Sh.F. The role of investment strategies in transforming small business entities into large corporate structures.....	162
Goziyev M.Sh., Abdufattoyeva M. Sun'iy intellekt asosida iqtisodiy qarorlar qabul qilish samaradorligini oshirish.....	167
Qobilov H., Uzganbayeva D.T. O'zbekiston iqtisodiyotida xususiy tadbirkorlikning ro'li: so'nggi yillardagi islohotlar sharoitida iqtisodiy o'sish va bandlikka qo'shayotgan hissi.....	170
Sotiboldiyeva R., Uzganbayeva D.T. O'zbekistonda xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining ahamiyati.....	174
Маматкулов З.Ш. Хизмат кўрсатиш фаолиятининг шакллантириш ва бошқаришда хориж тажрибаларидан самарали фойдаланишнинг инновацион йўналишлари.....	179
Shamsiddinov P., Uzganbayeva D.T. Iqtisodiyotning raqamlashtirishning afzaliklari va uning oqibatlari.....	185
Qosimov A.S. Jizzax viloyati mahallalarining qayta nomlanishi va demografik jarayonlar va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari.....	189
Qodirov A., Tulaganov E.J., Berdimurodov U.S. Inson kapitalini kapitalizatsiya qilish va samaradorligini oshirish.....	192
Saidkarimova M.I., Sobirov O.A. Sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish yo'llari.....	199
Saidova M.J. Sanoat transformatsiyasi sharoitida kichik biznes va tadbirkorlikning o'rni (Andijon viloyati misolida)	203
Юсупов А.С., Пардаев Х.Ф. Динамическое управление международным портфелем акций: механизмы ребалансировки и преимущества глобальной диверсификации в условиях волатильности валютных рынков.....	206
Burxonov J.X., Soliyev I.I. Mehnat bozorini tartibga solishda innovatsion yondashuvlarning xorij tajribasi tahlili.....	213
Xaitbaev J.O. Mintaqa iqtisodiyotini barqarorligini ta'minlashda suv resurslaridan foydalanishning ko'p omilli ekonometrik modellari.....	217
Saidov U.S. Kichik tadbirkorlik subyektlarida ekologik innovatsiyalarni rag'batlantirishning moliyaviy yo'nalishlari.....	221
Nurmaxanmadov N.B. Iqtisodiyotning ekologiyaga ta'sir moyilligining oshib borishi muammosi.....	224
Xudayberdiyev K. Davlat xaridlarida elektron platformalar faoliyatini optimallashtirishda sun'iy intellektga asoslangan moderatsiya mexanizmlarining roli.....	230
Xolxo'jayev E.G'. Davlat xaridini tashkil etishda elektron savdolardan foydalanish samaradorligi hamda imkoniyatlari tahlili.	234
Rustamova F.A. Qishloq joylarda tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy samaradorligini baholash va uni oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	238
Ikromov A. Iqtisodiy jarayonlarni ekonometrik modellashtirishda integro-differensial tenglamalarning o'rni va ularni tadqiq etish.....	241
Sarimsakov B.R., Usmonov J.Q. Xorijiy mamlakatlarda inson kapitalidan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida samarali foydalanish tajribalari.....	245
Maraimov I.R. O'zbekistonda kambag'allikni kamaytirish va aholi turmush farovonligini oshirish.....	251
Yusupov Sh.B. Xorazm viloyatida sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorligini baholash va oshirish yo'llari: 2020–2025 yillar tahlili va 2030 yilga prognoz.....	256
Chintemirova D.Sh. Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari.....	260
Xusanova Z.R. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning samaradorlik ko'rsatkichlari va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.....	265
Tajiboyev S.O., Gulimboyev S.I. Moliyaviy siyosatning investitsiya muhitiga ta'siri.....	270
Tajiboyev S.O. G'aznachilikda to'lovlarni amalga oshirish.....	275
Xaydarov M., Baxtiyorov I. Innovatsion iqtisodiyot g'oyalari va ularni oliy ta'lim tizimi orqali qo'llashning nazariy asoslari.....	279
Ким Т.В., «Зарубежный опыт развития циркулярной экономики и её роль в формировании ресурсосберегающей модели экономического развития».....	286

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

Saydullayeva R.U. Analysis of financial efficiency and profitability in the green economy: the role of IAS and IFRS standards.....	292
Galatov A.A., Karimova G.A. O‘zbekistonda Islomiy moliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi nobank tashkilotlar faoliyati va strategik boshqaruv tizimining tahlili.....	296
Tursunov F.U. Oliy ta‘lim sifati monitoringini takomillashtirish mexanizmlarini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari... ..	300
Yakhshiboev R.E. Retrieval-augmented generative AI for smart learning content.....	303
Ergashev S.A. Sanoat korxonalarini barqaror rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish: ilmiy-nazariy va amaliy asoslar.....	307
Абдуллаева Р.Ғ., Тажибаева Н.Ф. Ўзбекистон иқтисодиётида инвестицияларнинг устувор йўналишлари ва ривожланиш истиқболлари.....	311
Sayfullayev J. Why organizations struggle to implement green management practices: key barriers and practical solutions.....	316
Sirojiddinov K.I. Korxonaning raqobatbardoshligini baholash usullari.....	319
Ibraximov X.S. Mintaqalarda tadbirkorlik muhitini shakllantirishda kichik biznesni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning o‘rni va mexanizmlari.....	324
Tajibayev K.Q. Farg‘ona vodiysida kichik biznes sub’ektlari raqobatbardoshligini oshirishning metodologik asoslari.....	328
Abdulxakimov Z.T. Barqaror rivojlanish evolyusiyasi va tarkibiy qismlari masalalari.....	332
Pazilidinov M.M. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda xorijiy mamlakatlarning raqamlashtirish tajribasi.....	337
Жураева М.З., Ахмедов Р.М. Экосистема применения системного подхода в менеджменте транспортной инфраструктуры.....	341
Ахмедов Р.М. Основные требования к разработке системного подхода в менеджменте дорожного хозяйства Республики Узбекистан.....	348
Mamasiddiqova F.X. Qishloq xo‘jaligida mahallalar ixtisosligi: nazariy asoslar, regional tahlil va rivojlantirish istiqbollari.....	353
To‘rayev A.A. Mehnat bozorini texnologik transformatsiyalash sharoitida ishchi kuchi raqobatbardoshligini oshirish mexanizmlari.	358
Солиев И.И. Концептуальные основы институциональной автономии вузов в условиях модернизации системы образования Узбекистана.....	362
Xasanov S.Q. Sanoat korxonalarini rivojlantirishda modernizatsiya va klaster yondashuvining o‘rni.....	365
Murodov A. Aholining real pul daromadlarini va xarid qobiliyatini oshirishning nazariy asoslari.....	369
Карабаев Р.З. Искусственный интеллект в цифровой экономике Узбекистана.....	374
Rasulova Sh.A. Bozor iqtisodiyotida monopoliyaning mohiyati, shakllari va uning O‘zbekiston iqtisodiyotiga ta’siri.....	378
Salimov A.F., Rasulova Sh.A. Bozor muvozanati va unga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar.....	381
Sattarova G.X. O‘zbekiston logistika bozorida yuk tashish xavflarini sug‘urta orqali kamaytirishning iqtisodiy samaradorligi.....	385
Муродхўжаева Ф.М. Маҳаллий саноатни шакллантиришда кластер ёндашуви ва 2030 йилгача трансформациянинг прогноз параметрлари (Наманган вилояти мисолида).....	389
Yoqubjonov R.R. Kichik biznes mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion yondashuvlar.....	396
Nasritdinov B.X. Risklarni integral baholash kichik biznesda moslashuvchan boshqaruv tizimi asbobi sifatida	400
Abdurazzoqov H.A. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonining hozirgi holati va tendentsiyalari.....	406
Turgunov M.M., Soliyev I.I. Milliy innovatsion tizim samaradorligini oshirishning strategik yo‘nalishlari.....	411
Kuzimuratova D.M. O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish.....	414
Soyibjonov I.S. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlantirish.....	419
Axmadjanov I.I. Shaharlar va shahar aglomeratsiyalari mintaqalar va mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining drayveri.....	423
Odinayev G‘.J. Nogironligi bo‘lgan aholi qatlamini strategik sohalarda band qilish loyihalari.....	427
Abduvahobov V.B. Jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishning global standartlari va O‘zbekiston tajribasi: kompleks tahlil.....	430
Қўзиева Н.Н. Билвосита солиқларнинг шаклланиши ва ривожланиб бориши.....	435

kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, raqamli infratuzilmaning hududlar kesimida notekis rivojlanishi “raqamli tafovut” muammosini yuzaga keltirayotgan bo‘lib, bu esa barqaror rivojlanishga to‘sqinlik qiluvchi omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli, kelgusida mintaqalarda raqamli xizmatlar ekotizimini yanada rivojlantirish, infratuzilmani kengaytirish va inson kapitalini mustahkamlash orqali iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash ustuvor vazifa bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD) (2026) OECD services trade restrictiveness index 2026. Available at: https://www.oecd.org/en/publications/oecd-services-trade-restrictiveness-index-2026_db87d74e-en/full-report/component-5.html
2. Asian Development Bank (ADB) (2018) Harnessing digitalization for sustainable economic development. Manila: Asian Development Bank. Available at: <https://www.adb.org/publications/harnessing-digitalization-sustainable-economic-development>
3. Majchrzak, M., Maslak, O., Maslak, T., Kozuba, J., Podlewski, M. and Niedzielski, P. (2026) ‘Selected digital services in building a resilient and sustainable economy: Ukraine’s experience and implications for European Union countries’, *Preprints*.
4. Bukht, R. and Heeks, R. (2017) *Defining, conceptualising and measuring the digital economy*. Development Informatics Working Paper No. 68. Available at:
5. United Nations Conference on Trade and Development (UNCTAD) (2024) *Digital economy report 2024*. Geneva: UNCTAD.
6. Habibi, F. and Zabardast, M.A. (2020) ‘Digitalization, education and economic growth: A comparative analysis of Middle East and OECD countries’, *Technology in Society*, 63, p. 101370.
7. Xorazm Region Department of Statistics (n.d.) Services sector statistics.
8. nPerf (n.d.) Mobile network coverage map: Urganch, Uzbekistan (UzMobile).
9. Center for Economic Research and Reforms (CERR) (2023) *An exhibition laboratory of GUP “CEMC” was organized in the Urgench branch of IT Park*.

UDK: 338.43:677(575.1)

PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARI FAOIYATINI SHAKLANISHI VA RIVOJLANASHINING ZAMONAVIY NAZARIYALARI.

СОВРЕМЕННЫЕ ТЕОРИИ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ ХЛОПЧАТОБУМАЖНЫХ ТЕКСТИЛЬНЫХ КЛАСТЕРОВ.

MODERN THEORIES OF THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF COTTON-TEXTILE CLUSTERS.

Saidaxmedov Nemat Xamidovich

Andijon davlat texnika instituti “Iqtisodiyot” kafedrası katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatida paxta-to‘qimachilik klasterlarining shakllanishi va rivojlanishining ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilingan. Unda hududiy klasterlarning iqtisodiy samaradorlikni oshirishdagi o‘rni, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, resurslardan samarali foydalanish va qo‘shilgan qiymat zanjirini kengaytirishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, so‘nggi yillardagi statistik ko‘rsatkichlar asosida klasterlar faoliyatining rivojlanish tendensiyalari baholangan hamda tarmoqni yanada rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: paxta-to‘qimachilik klasteri, hududiy rivojlanish, iqtisodiy samaradorlik, innovatsiyalar, qo‘shilgan qiymat, sanoat klasterlari, eksport salohiyati, raqamli transformatsiya, resurslardan foydalanish.

В данной статье анализируются научно-теоретические основы формирования и развития хлопчатобумажно-текстильных кластеров в текстильной промышленности Узбекистана. Подчеркивается роль региональных кластеров в повышении экономической эффективности, важность внедрения инновационных технологий, эффективного использования ресурсов и расширения цепочки создания стоимости. Также на основе статистических показателей последних лет оцениваются тенденции развития кластерной деятельности и разрабатываются научно-практические рекомендации по дальнейшему развитию отрасли.

Ключевые слова: кластер хлопчатобумажной промышленности, региональное развитие, экономическая эффективность, инновации, добавленная стоимость, промышленные кластеры, экспортный потенциал, цифровая трансформация, использование ресурсов.

This article analyzes the scientific and theoretical foundations of the formation and development of cotton-textile clusters in the textile industry of Uzbekistan. It highlights the role of regional clusters in increasing economic efficiency, the importance of introducing innovative technologies, efficient use of resources, and expanding the value chain. Also, based on statistical indicators of recent years, the development trends of cluster activities are assessed and scientific and practical recommendations for further development of the industry are developed.

Keywords: cotton-textile cluster, regional development, economic efficiency, innovation, added value, industrial clusters, export potential, digital transformation, resource use.

Sanoat iqtisodiyotning asosiy tarkibiy qismi bo‘lib, uning rivojlanishi har qanday mamlakatning iqtisodiy barqarorligi va strategik o‘rinishining negizini tashkil etadi. Zamonaviy sharoitda sanoat rivojlanishining samarali boshqaruvi global iqtisodiy tendensiyalar, texnologik yangiliklar va bozor talablariga moslashish jarayonlari bilan uzviy bog‘liqdir. Shu bois, sanoatning rivojlanish nazariyalarini chuqur o‘rganish va ularning tuzilmaviy-funksional tahlilini amalga oshirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Sanoat rivojlanishining nazariyalari ko‘plab omillarni o‘z ichiga oladi: -ishlab chiqarishning diversifikatsiyasi;

-texnologik yangilanish;

-innovatsiyalarni joriy etish;

- bozor talablariga moslashuv va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning boshqa jihatlari.

Ushbu nazariyalar sanoat jarayonlarini tizimli o‘rganishga yordam beradi va amaliyotda samarali strategiyalar ishlab chiqishga asos yaratadi. [1]

Dunyoning eng yirik mamlakatlarida sanoat ishlab chiqarishi jadal rivojlanmoqda va har qachongidan ham yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlabchiqaradigan yuqori texnologiyali tarmoqlar ustunlik qilmoqda, bu esa ishlabchiqarishning yuqori raqobatbardoshligiga erishish va uni saqlab qolishga xizmat qilmoqda. Iqtisodiyotlari rivojlangan, rivojlanayotgan va o‘tish davridagi mamlakatlarda zamonaviy iqtisodiy dinamikaga xos bo‘lgan umumiy tendensiyalar quyidagilardan iborat:

-beshinchi bosqich texnologiyalarining (global axborot yechimlari, atom energetikasi, kosmik texnologiyalar va boshqalar) keng rivojlanishi;

-qisman keyingi bo‘lgan oltinchi texnologik tartibdagi texnologiyalar uchun asosni shakllantirish beshinchi darajali texnologiyalarni (biotexnologiyalar, nanotexnologiyalar, sun‘iy intellekt tizimlari) ishlab chiqish;

-moddiy ishlab chiqarishni (an‘anaviy sanoat tarmoqlari) tubdan texnologik qayta jihozlashni ifodalovchi yangi sanoatlashtirish jarayonlarini faollashtirish.

O‘zbekiston iqtisodiyotida paxta-to‘qimachilik sanoati strategik ahamiyatga ega tarmoq bo‘lib, u yalpi ichki mahsulot, bandlik darajasi, eksport salohiyati hamda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi.

Mamlakatda paxta xomashyosini chuqur qayta ishlash, tayyor to‘qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish, eksport tarkibini diversifikatsiya qilish borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonda hududiy to‘qimachilik klasterlari ishlab chiqarish zanjirining barcha bosqichlarini — xomashyo yetishtirishdan tortib tayyor mahsulotni ichki va tashqi bozorlarga yetkazib berishgacha — o‘zida mujassamlashtirgan muhim institutsional model sifatida shakllanmoqda.

Shu bilan birga, amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, mavjud paxta-to‘qimachilik klasterlarining iqtisodiy samaradorligi hududlar kesimida bir xil darajada emas. Ayrim klasterlarda ishlab chiqarish quvvatlaridan to‘liq foydalanilmasligi, logistika va infratuzilma muammolari, innovatsion texnologiyalarning yetarli darajada joriy etilmagani, mehnat unumdorligi pastligi hamda boshqaruv mexanizmlarining samarali yo‘lga qo‘yilmagani kuzatilmoqda. Bu esa klasterlarning raqobatbardoshligini pasaytirib, kutilgan iqtisodiy natijalarga erishishni cheklamoqda.

Paxta-to‘qimachilik klasterlari — bu milliy iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri bo‘lib, mamlakatning ichki bozorini ta‘minlash, eksport salohiyatini oshirish va ish o‘rinlarini yaratishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, to‘qimachilik tarmog‘i hududiy xususiyatlarga ega bo‘lgan, ko‘plab kichik va o‘rta ishlab chiqarish korxonalaridan tashkil topgan tizim sifatida faoliyat ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 04.12.2021 yildagi 733-son qarori tasdiqlangan “Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi nizom paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

agrotexnologik xarita — paxta-to‘qimachilik klasteri tomonidan har yili oktyabr oyiga qadar tasdiqlanadigan hamda mavsum davomida barcha qilinadigan ishlar va taxminiy xarajatlarni (oylar kesimida) aks ettiruvchi hujjat;

ixtisoslashuv bo‘yicha qishloq xo‘jaligi ekinlarini joylashtirish — paxta-to‘qimachilik klasterining biznes reja va agrotexnologik xaritasida ko‘rsatilgan qishloq xo‘jaligi ekinlarini joylashtirish, ekish va yetishtirish;

paxta-to‘qimachilik klasteri — bir yoki bir nechta tashkilotlar tomonidan paxta xom ashyosini yetishtirish va (yoki) shartnoma asosida sotib olishdan uni, shu jumladan boshqa xo‘jalik subyektlari bilan hamkorlik asosida chuqur qayta ishlash jarayonlarini o‘z ichiga olgan ishlab chiqarish majmuasi;

talabgor — paxta-to‘qimachilik klasterini tashkil etish uchun ariza bergan bir yoki bir nechta yuridik shaxslar.

Paxta-to‘qimachilik klasteri quyidagi shaklda tashkil etiladi:

ijaraga olingan qishloq xo‘jaligi yer uchastkalarida paxta xom ashyosini yetishtirish;

qishloq xo‘jaligi yer uchastkalarini ijaraga olmasdan paxta xom ashyosini shartnoma asosida fermer xo‘jaliklari va boshqa paxta xom ashyosi yetishtiruvchi xo‘jalik subyektlaridan sotib olish;

ijaraga olingan qishloq xo‘jaligi yer uchastkalarida paxta xomashyosini yetishtirish hamda paxta xomashyosini yetishtiruvchilardan shartnoma asosida sotib olish.

Paxta-to‘qimachilik klasteri bilan paxta xom ashyosi yetishtiruvchilarning o‘zaro munosabatlari taraflarning manfaatlaridan kelib chiqqan holda paxta xom ashyosini yetishtirish va yetkazib berish bo‘yicha qonunchilik hujjatlariga muvofiq tuziladigan shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Paxta-to‘qimachilik klasteri faoliyati Qishloq xo‘jaligi vaziri bilan kelishgan holda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklarining qarorlari bilan tashkil etiladi.

Paxta-to‘qimachilik klasteri O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlari va ushbu Nizom hamda boshqa qonunchilik hujjatlari asosida faoliyat yuritadi.

Mazkur Nizomda paxta-to‘qimachilik klasteri faoliyatini tashkil etishni bosqichlar, mas’ullar, amalga oshirish mexanizmi, ijro muddati berilgan

Paxta-to‘qimachilik klasteri faoliyatini tashkil etish sxemasi [2]

Bosqichlar	Mas’ullar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati
1-bosqich	Talabgor (jismoniy yoki yuridik shaxs)	Talabgor (jismoniy yoki yuridik shaxs) hududda yangi paxta-to‘qimachilik klasterini tashkil etish uchun Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ariza bilan tegishli hujjatlarni ilova qilgan holda murojaat qiladi.	Ixtiyoriy ravishda
2-bosqich	Davlat xizmatlari markazi	Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali talabgor tomonidan paxta-to‘qimachilik klasteri faoliyatini tashkil etish bo‘yicha taqdim qilingan hujjatlarni ko‘rib chiqish uchun tegishliligiga ko‘ra Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklariga yuboradi.	Real vaqt rejimida
3-bosqich	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari	Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali paxta-to‘qimachilik klasterlarini tashkil etish bo‘yicha yuborilgan arizalarni qabul qiladi va ularga ilova qilingan hujjatlarning to‘liqligini ko‘rib chiqadi hamda Qishloq xo‘jaligi vazirligi bilan kelishish uchun kiritadi.	Besh ish kunida
4-bosqich	Vazirlik	Taqdim etilgan hujjatlarni mazkur Nizomda nazarda tutilgan asoslarga muvofiq o‘rganib chiqadi hamda klaster tashkil etish yoki tashkil etmaslik to‘g‘risida tegishliligiga ko‘ra Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklariga xabar yuboradi.	Besh ish kunida
5-bosqich	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari	Vazirlik tomonidan taqdim etilgan klaster tashkil etish to‘g‘risidagi yozma xabarnomaga asosan qaror qabul qiladi.	Bir ish kunida

Klasterlarni rivojlantirishning yana bir nazariy jihat — bu innovatsion rivojlanish nazariyasidir. Innovatsion rivojlanish nazariyasi sanoat tarmoqlarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini va yangi texnologiyalarni joriy etishni o‘rganadi.

Paxta-to‘qimachilik klasterlari innovatsion ishlab chiqarish jarayonlarini joriy etish orqali mahsulot sifatini oshiradi, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi va eksport salohiyatini kuchaytiradi.

Shu bilan birga, innovatsion yondashuvlar klaster ichidagi korxonalar o‘rtasidagi tajriba almashinuvini kuchaytiradi va samarali ishlab chiqarish tizimlarini shakllantiradi.

Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini tahlil qilishda ekonometrik usullar va matematik modellashtirishdan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bu usullar klasterlar samaradorligini

o‘lchash, resurslardan foydalanish samaradorligini baholash va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishga imkon beradi.

Shu nuqtai nazardan, ilmiy tadqiqotlar klaster ichidagi ishlab chiqarish jarayonlari, innovatsion faoliyat va resurs taqsimoti o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniq tasvirlaydi.

O‘zbekiston tajribasida ham to‘qimachilik klasterlarini tashkil etish iqtisodiy islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib xizmat qilmoqda. Paxta-to‘qimachilik klasterlari orqali xom ashyoni chuqur qayta ishlash, zamonaviy korxonalar barpo etish va eksport hajmini oshirishga erishilmoqda. Shu bilan birga, yangi ish o‘rinlari yaratilishi va hududlar iqtisodiyotining rivojlanishi kuzatilmoqda.

Mazkur sharoitda paxta-to‘qimachilik klasterlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘llarini ilmiy asosda tadqiq etish, ularning faoliyatiga ta’sir etuvchi omillarni kompleks tahlil qilish, samaradorlikni baholash mezonlarini ishlab chiqish hamda amaliy tavsiyalar berish dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 04.12.2021 yildagi “Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 733-son qarori.
- 2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-yanvardagi “Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-2 sonli Farmoni.
- 3.Зияева Дамирахон Файзуллажон кизи “Sanoatning rivojlanish nazariyalarining tuzilmaviy funksional tahlili” “Raqamli iqtisodiyot” ilmiy-elektron jurnali 10-son.
4. Enright, M (1996) “Regional Clusters and Economic Development: A Research Agenda”, in Staber, U., Schaefer, N. And Sharma, B, (Eds). “Business Networks: Prospects for Regional Development, Berlin”. Walter de Gruyter, p.190-213.
- 5.Маршалл А. Принципы экономической науки, I-III. Пер. с англ.- М.-Издательская группа “Прогресс”, 1993
6. Saidaxmedov, N. (2024). Bandlik beqarorligi (prekarizatsiya) ning nazariy va konseptual asoslari. AndMI Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalari, 1(1), 332-336.
- 7.Saidaxmedov, N. (2024). O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishda klaster tizimining o‘rni. Interpretation and researches, 2(15), 82-86
- 8.Saidakhmedov, N. (2023). Private property, small business and private entrepreneurship—under state protection. Scientific progress, 4(2), 319
- 9.Saidaxmedov, N. (2024). Sanoat klasterlarining shakllanishi va rivojlanishi. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 2(11).
- 10.Saidaxmedov N.X. Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun kichik klasterlari tashkil etishning samarali yo‘llari MASHINASOZLIK ILMIY-TEXNIKA JURNALI SCIENTIFIC AND TECHNICAL JOURNAL (Maxsus son) 2024 yil www.andmiedu.uz